

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov

Mas‘ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo‘raqo‘ziyev.

Tahrir hay‘ati

| | |
|---------------------------------|--------------------------------|
| Isa Habibbeyli (Ozarbayjon) | Maria Sabtelni (Kanada) |
| Frederik Bressand (Fransiya) | Timur Kocaoğlu (AQSH) |
| Ingeborg Baldauf (Germaniya) | Almaz Ülvi (Ozarbayjon) |
| Mark Toutant (Fransiya) | Tanju Seyhan (Turkiya) |
| Rochelle Almeida (AQSH) | Xisao Komatsu (Yaponiya) |
| Akrom Habibullayev (AQSH) | Emek Üşenmez (Turkiya) |
| Valeriy S. Xan (O‘zbekiston) | Abdulvahap Kara (Turkiya) |
| Eunkyung Oh (Janubiy Koreya) | Alizoda Saidumar (Tojikiston) |
| Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston) | Dilorom Ashurova (O‘zbekiston) |
| Shodmon Vohidov (Tojikiston) | Darya Jigulskaya (Rossiya) |

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev.

Editorial Committee

| | |
|---------------------------------|-------------------------------|
| Isa Habibbeyli (Azerbaijan) | Maria Subtelny (Canada) |
| Frederique Bressand (France) | Timur Kozhaoglu (USA) |
| Ingeborg Baldauf (Germany) | Almaz Ulvi (Azerbaijan) |
| Marc Toutant (France) | Tanju Seyhan (Turkey) |
| Rochelle Almeida (USA) | Hisao Komatsu (Japan) |
| Akram Habibullaev (USA) | Emek Üşenmez (Turkey) |
| Valeriy S. Khan (Uzbekistan) | Abdulahap Kara (Turkey) |
| Eunkyung Oh (South Korea) | Alizoda Saidumar (Tajikistan) |
| Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan) | Dilorom Ashurova (Uzbekistan) |
| Shodmon Vohidov (Tajikistan) | Daria Zhigulskaya (Russia) |

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

Baxtiyor Abdushukurov

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

Zulxumor Xolmanova

Omonimlar – tafakkur omili.....30

Sanjar Mavlyanov

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

Elyor Xonnazarov

O'zbek tilshunosligida zamoni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

Muhittin Gümüş

Bâbürnâme'nin edebî tür açisindan özellikleri.....78

Fan. Ta'lim. Metodika

Dilnavoz Yusupova

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Nazm va navo xususida.....104

CONTENT

Linguistics

Samikhan Ashirboev

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

Bakhtiyar Abdushukurov

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

Zulhumor Kholmanova

Homonyms – a factor of wisdom.....30

Sanjar Mavlyanov

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the Uzbek language.....45

Elyor Khonnazarov

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

Literature. Translation studies

Tanju Seyhan

Ali Şir Nevâyî and Pen66

Muhittin Kumush

Features of Baburname as a literature genre.....78

Science. Education. Methodology

Dilnavoz Yusupova

Modern technologies and use of methods (in the example of "Farhod and Shirin").....89

Art

Oqilkhon Ibrohimov

About poetry and melody.....104

FAN. TA'LIM. METODIKA
SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

**"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy
texnologiyalar va metodlardan foydalanish**
(“Farhod va Shirin” misolida)

Dilnavoz Yusupova¹

Abstrakt

Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini oliy o'quv yurtlarida zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish masalasi yoritilgan. Navoiy asarlarini o'qitishda samarali bo'lgan yangi metodlar ishlab chiqilgan. Jumladan, talabning diqqatini tortishga qaratilgan “Kun bayti” texnologiyasi, qiyoslash asosidagi konseptual jadvallar, chizmalar dars jarayonida Navoiy ijodiga muayyan darajada talabani yaqinlashtiradi. Miniaturalar asosida asar qahramonlariga tavsif berish fikrlashga yo'naltiradi. Mazkur metod va texnologiyalar asosida badiiy tahlil ko'nikmasi shakllanadi hamda Alisher Navoiy ijodiy olami bilan tanishib boradi.

Kalit so'zlar: *doston, an'ana, konseptual jadval, chizma, miniatyura.*

Kirish

Alisher Navoiy hayoti va ijodini maktab, akademik litsey va oliy o'quv yurtlarida alohida metod va texnologiyalar asosida o'qitish bugungi jarayonning zaruriy talablaridan biridir. Shoir qoldirgan ijodiy merosda aks etgan umuminsoniy g'oyalar, bunyodkorlikka, ijodkorlikka, vatanparvarlikka chorlaydigan qarashlar bolalarimiz va yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirishda o'ta muhim o'rin tutishi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan olganda, pedagog yoki ilmiy soha vakili sifatida faoliyat yuritadigan har bir filologda Alisher

¹*Yusupova Dilnavoz Rahmonovna* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: dilnavoz@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

Iqtibos uchun: Yusupova, D. R. 2022. “Xamsa” dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish (“Farhod va Shirin” misolida). *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 89-102.

Navoiy ijodini tushunish va uni tushuntirib berish malakasini alohida shakllantirish lozim.

Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy ijodini o'qitishdagi murakkab holat haqida so'z ketganda, mutaxassis o'qituvchilar ko'pincha matnlarni tushunish va tushuntirishdagi murakkabliklarni qayd etadilar. Darhaqiqat, bugungi kitobxon va Navoiy yashagan davr orasidagi salkam olti asrlik masofa, tildagi o'zgarishlar, shoir asarlaridagi ma'no ko'lamdorligi, ramziylik va majoziylik, falsafiy mushohadakorlikning kengligi XXI asr o'quvchisi uchun buyuk mutafakkir ijodini tom ma'noda anglashga ma'lum darajada to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, asosiy axborotni ijtimoiy tarmoqlardan tez va qulay tarzda qabul qilishga moslashib borayotgan bugungi o'quvchida Alisher Navoiy asarlari, xususan "Xamsa" dostonlariga muhabbat va ma'naviy ehtiyoj uyg'otish oson kechmasligi bugun hech kimga sir emas.

Biz ushbu maqolamizda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini oliy ta'limda zamonaviy metod va usullar: "Kun bayti" texnologiyasi, konseptual jadvallar, chizmalar va miniatyuralar vositasida o'qitish bilan bog'liq ba'zi mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz. Zero, mavzuga doir asosiy matnni qisqa va aniq ifodalangan chizmalar va jadvallarda aks ettirish, shoir asarlariga ishlangan miniatyuralar asosida ularni tafakkurga chorlash talaba uchun bir necha o'n betlik ma'lumotlarni o'qish yoki yozishdan ko'ra ko'proq samara beradi va eng muhimi uni mashg'ulotlardan bezdirmaydi.

"Kun bayti" metodi haqida

Ko'pincha mutaxassislar, ba'zan boshqa soha kishilari orasida zamonaviy kitobxonlar yoki yoshlarimizning Navoiy ijodidan bayt yod bilmasliklaridan shikoyat kayfiyati sezilib qoladi. Aksariyat hollarda bu shikoyatning o'rinli ekanligini afsus bilan ta'kidlash joiz. Shu o'rinda "Navoiyshunoslik" fanidan har bir mashg'ulotni mavzudan kelib chiqqan holda "Kun bayti" bilan boshlash yaxshi samara beradi. Bunda shu mavzuning asosiy mohiyati aks etgan baytni tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Farhod va Shirin" mavzusi o'tilayotganda, mazkur dostonning umumiy konsepsiyasini ochib beradigan quyidagi baytni talabalar e'tiboriga haqola qilish mumkin:

Majoziy ishq bo'ldi subhi anvar,

Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar [Navoiy 2006, 129].

Bayt o'qituvchi tomonidan o'qib berilgach, uning asosiy

mazmuni talabalar bilan birgalikda, taqdim etilgan lug'at asosida bayon qilib beriladi. E'tibor qaratilsa, baytda dostonning muhim g'oyasi – majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa o'tib borayotgan ishq talqini aks ettirilganligini kuzatish mumkin. O'qituvchi Suqrot tilidan aytilgan ushbu baytni taxminan quyidagicha sharhlashi mumkin:

“Shoir ushbu baytda majoziy ishqni tong nuriga, haqiqiy ishqni quyoshga o'xshatish bilan “majoz – haqiqat yo'lidagi ko'prik” ekanligiga, Yaratganga muhabbat U yaratgan xilqatlarga muhabbat orqali oydinlashishiga ishora qiladi. Zero, tongning nuri quyosh tarafga nazar tashlashga undaydi. Demak, Farhodning oldida turgan ishq dastlab majoziy ishq sifatida namoyon bo'ladi. Biroq majoziy ishq uchun “mazhar” kerak. Mazhar Haq jamoli zuhur etgan insondir. Farhod uchun mazhar Shirindir”. Talabalarga doston mohiyati va kun baytining mazmuni tushunarli bo'lgach, uni yodlash topshiriladi. Keyingi mashg'ulotni o'qituvchi ana shu kun baytining yoddan o'qib berilishini nazorat qilishdan boshlaydi. Baytni bir mashg'ulotda 5-6 talabaning yoddan aytishi kifoya, zero, qolgan talabalar ham uni qayta-qayta tinglash orqali qanday yod olganlarini sezmay ham qoladilar. Shu tariqa semestr so'ngigacha talabalar jami mashg'ulot soatlari qancha bo'lsa, shuncha kun baytini yoddan, mohiyatini yaxshi anglagan holda o'zlashtirgan hisoblanadilar (Bu mashg'ulotlar jarayonida yodlash uchun beriladigan ruboiy, g'azal, tuyuqlardan tashqari, albatta).

Konseptual jadvalning samaradorligi

Ta'kidlash joizki, Navoiyning ushbu dostoni “Xamsa” tarkibidagi boshqa dostonlar singari ulug' salafilariga javobiya tarzida vujudga kelgan va ko'p o'rinlarda: bosh qahramonlar, syujet chizig'i, voqealar rivojida o'zaro mushtarak jihatlar kuzatiladi. Bu bevosita Sharq adabiyotidagi an'anaviylik bilan bog'liq, zero, musulmon Sharqida ijodkorning salohiyati yangi syujet yaratishiga qarab emas, balki an'anaviy voqelik, mavzu, qahramonlar doirasida yangi fikr ayta olish iqtidoriga qarab belgilangan. Agar biz talaba yoki kitobxoniga dastlab ana shu holatni anglata olsak, buyuk shoir dostonlarining o'ziga xos jihatlarini ochib bergan bo'lamiz. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, “Xamsa” tarkibidagi dostonlarni o'qitishda konseptual jadvallardan foydalanish metodi samarali natija beradi.

Konseptual jadval o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlar-ni ikki va undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashga asoslanadi. Bunday jadvallar o'rganilayotgan muammoni qiyosiy tahlil etish asnosida uning muhim belgilarini aniqlash, unga kompleks tarzda

munosabat bildirish, istiqbolli tadqiq yo‘nalishlarini belgilab olish imkonini beradi, shuningdek, tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Konseptual jadval tuzish jarayonida taqqoslanadigan muammolar aniqlanadi, olib boriladigan taqqoslanishlar bo‘yicha xususiyatlar ajratiladi va shu orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, “Farhod va Shirin” dostonini ana shunday jadvallar asosida salaflar dostonlari bilan qiyosan o‘rganish samarali natija beradi.

Ma‘lumki, ushbu yo‘nalishdagi dostonlarning bosh qahramonlaridan biri Xusrav Parvez tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga chiqqan va 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan Eron shohidir. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa bo‘lgan muhabbati ko‘plab tarixiy asarlarda qayd etilgan. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy o‘zining «Shohnoma» dostonida yozib qoldiradi, Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiydan so‘ng bu mavzuda Xusrav Dehlaviy, Orif Ardabily, Ashraf Marog‘iy, Abdulloh Hotifiy, Alisher Navoiy va boshqalar qalam tebratganlar. Ushbu mualliflarning dostonlari haqidagi ma‘lumotlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

| Qiyoslanuvchi jihatlar | Nizomiy Ganjaviy | Xusrav Dehlaviy | Orif Ardabily | Ashraf Marog‘iy | Abdulloh Hotifiy | Alisher Navoiy |
|------------------------|--------------------|--------------------|---------------|--------------------|--------------------|--------------------|
| Doston Namlari | “Xusrav va Shirin” | “Shirin va Xusrav” | “Farhod-noma” | “Riyoz ul-oshiqin” | “Shirin va Xusrav” | “Farhod va Shirin” |
| Yaratilish davri | 1181-yil | 1299-yil | 1369-yil | 1432-yil | 1490-yil | 1484-yil |
| Hajmi | 6500 bayt | 4124 bayt | | 7713 bayt | 1815 bayt | 5782 bayt |

Endi dostonlarning g‘oyaviy yo‘nalishiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Nizomiy dostonining asosini Madoyin shahzodasi Xusrav Parviz bilan Barda’ malikasi Shirin o‘rtasidagi murakkab sevgi sarguzashtlari tashkil etadi. «Xusrav va Shirin» an’anaviy muqaddimadan so‘ng Madoyin hukmdori Xurmuz xonadonida Xusrav Parvizning tug‘ilishi tufayli uyushtirilgan shodiyona tasviri bilan boshlanadi. Bola tarbiyasiga alohida e‘tibor bilan qaraydilar: u favqulodda kuch va g‘ayrat, aql-idrok egasi bo‘lib ulg‘ayadi. Lekin uning tabiatida yengiltaklik, beqarorlik ham mavjud edi. Bir kuni Xusrav Shopur ismli rassomdan Barda’ hukmdori Mehinbonuning

go'zallikda tengsiz jiyani Shirin haqida hikoya eshitadi va unga oshiq bo'lib qoladi. Xusrav Shopurni Barda'ga sovchilikka yuboradi. Shopur Shiringa Xusravning suratini ko'rsatadi va Shirin Madoyinga keladi. Lekin bu paytda Xusrav va uning otasi o'rtasida nizo chiqib, Xusrav mamlakatdan qochib ketgan edi. Shirin va Xusrav uchrasha olmaydilar. Shirin Madoyinda uzoq qolib ketadi va unga shahardan tashqariga, toshloqdan iborat yerga qasr qurib beradilar. Shirin shu yerda yashay boshlaydi. Madoyin hukmdori Xurmuz vafot etgach, Xusrav taxtga o'tiradi, lekin sarkarda Bahrom Cho'binning qarshiligiga dosh berolmay, Rum qaysarining huzuriga madad istab boradi. U yerdan qaysarning qizi Maryamga uylanib qaytadi va Madoyin taxtini qaytadan egallab, saltanat ishlariga sho'ng'ib ketadi. Shirin Xusravning hajrida iztirob chekadi va Mehinbonu huzuriga boradi. Mehinbonu bu paytda o'lim to'shagida edi. U Shiringa Barda' hukmronligini topshiradi. Shirin mamlakatni bir vorisiga topshirib, Madoyinga keladi va o'zining toshloq qasrida yashay boshlaydi. Yoshligidan sut ichib o'rgangan Shirin bu yerda sut yo'qligidan qiynaladi. Shuning uchun unga yaylovdan qasrga qadar sut arig'i qazdirish va bu ishda Farhod ismli usta muhandis yigitning yordamidan foydalanish to'g'risida maslahat beradilar. Farhod sut arig'ini qazishga kirishadi va Shirinni ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. Buni eshitgan Xusrav hiyla bilan Farhodni halok qiladi. Bu orada Maryam ham vafot etadi. Xusravga isfahonlik Shakarning go'zalligi haqida xabar keltiradilar va Xusrav Shakarga uylanadi. Lekin u Shirinni unuta olmaydi, Shirinni Madoyinga keltirishlarini buyuradi. Xusravning Maryamdan tug'ilgan o'g'li Sheruya Shirinni ko'rib, otasini o'ldiradi. Shirin ham Xusrav maqbarasi ichiga kirib, o'zini halok qiladi. Doston zamona hukmdori To'g'rulshohning Nizomiyni huzuriga chorlagani va uni taqdirlaganiga doir bob bilan xotima topadi.

Nizomiyning shu mavzudagi dostoniga javob yozgan Xusrav Dehlaviy o'z asarini "Shirin va Xusrav" deb atab, dostonning asosiy qismini sosoniy hukmdor Xusrav Parvezning taxtga o'tirishi voqeasi bilan boshlaydi. Xusrav Parvez ota taxtiga o'tirgach, mamlakatda adolat o'rnatishga alohida e'tibor qaratadi. Uning bu siyosatidan faqat bir vaqtlar qo'rqmas sarkarda sifatida nom qozongan Bahrom Cho'bingina norozi edi. Bahrom Cho'bin Xusravga qarshi hujum uyushtiradi va Xusrav Sosoniylar davlati poytaxti Madoyinni tark etishga majbur bo'ladi. Xusravga rassom Shopur hamrohlik qiladi. U shohga Armaniston malikasi Shirinning suratini ko'rsatadi. Xusrav ovda Shirinni uchratib, uni sevib qoladi.

Shirinning ham unga befarq emasligi ma'lum bo'ladi. Xusrav harbiy yordam uchun Rumga boradi va u yerdan rumlik malika Maryamga uylanib qaytadi. Xusravning mavqeyi tobora mustahkamlanib boradi va u o'z saltanatini Antioxiyagacha kengaytiradi. Uning qudratidan cho'chigan Rum qaysari o'z boyliklarini kemaga ortib, Habashiston tomonga suzmoqchi bo'ladi. Lekin bo'ron ko'tarilib, boyliklar Xusravning mamlakati tomonga kelib qoladi. Keyinchalik bu holat «Shamol keltirgan xazina» (ganji bodovard) qo'shig'ining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Biroz vaqt o'tgach Maryam vafot etadi. Shoh qayg'uga botadi va Shirinni o'z haramiga taklif qiladi. Lekin Shirin buni rad etadi. Shopur Xusravga go'zal Shakar yashaydigan Isfahonga borishni maslahat beradi.

Bir kuni Shirin ovdan qaytayotib tosh yo'nuvchi Farhod tomonidan mohirlik bilan qazilgan ariqni ko'rib qoladi va Armanistonda xuddi shunday ariq qazishni Farhoddan iltimos qiladi. Suhbat jarayonida Farhod Xitoy xoqonining o'g'li ekanligi ma'lum bo'ladi. Shiringa oshiq bo'lib qolgan Farhod ishga kirishadi. Farhodning Shiringa muhabbati Xusravning qulog'iga yetib boradi va u musofir qiyofasida Arman yurtiga yo'l oladi. Uning hiylasi bilan Farhodga Shirinning o'limi haqidagi yolg'on xabarni yetkazadilar va Farhod halok bo'ladi. O'z navbatida, Shirin ham kanizlaridan birini Shakarni zaharlash uchun Isfahonga yuboradi va shu orqali Xusravdan qasos oladi. Bir kuni Xusrav ov qilib yurib a'yonlaridan ajralib chiqadi va Shirinning qal'asi tomon kelib qoladi. Ikki sevishgan yarashadilar va Xusrav Shiringa muhabbati ramzi sifatida shohlik uzugini taqdim etadi. Keyingi boblarda Xusrav donishmandlar davrasida olam haqidagi savollariga javob izlagan holda tasvirlanadi. Xusravning o'g'li Sheruya otasidan norozi ba'zi amaldorlar bilan til biriktirib unga qarshi fitna uyushtiradi va otasining o'limiga sababchi bo'ladi. Xusravning jonsiz tanasi ustida Shirin ham hayot bilan vidolashadi. Doston dunyoning foniyligi haqidagi bob bilan yakunlanadi. Doston syujetidan ma'lum bo'ladiki, «Shirin va Xusrav»da Nizomiy dostonidan farq qiladigan ba'zi o'rinlar mavjud. Bular: dostonda Farhod timsoliga kengroq o'rin ajratilgan; Shirin Nizomiyda asosiy planda tasvirlangan bo'lsa, Dehlaviyda muallifning ideal shaxs bilan bog'liq qarashlari Shirindan ko'ra ko'proq Xusrav timsolida mujassamlashgan; Dehlaviyda Sheruyaning Shiringa oshiq bo'lish sahnasi kiritilmagan va b.

Abdulloh Hotifiyning "Shirin va Xusrav" dostoni g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga yaqin turadi. Faqat uning dostonidagi Xusrav Hotifiy zamonasidagi shohlarning

umumlashma obrazi bo'lib, muallif g'oyat ustalik bilan ushbu obraz zamiriga o'z davridagi nohaqliklar va adolatsizliklarni singdirib yuborgan. Dostonga zamonaviy hunarmandlar obrazining tipik vakili sifatida kiritilgan Farhod timsolida ham muallif Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy muammolarni ko'rsatib beradi. Farhod adolatparvar va halol hunarmand bo'lib, Xusrav u bilan ochiqdan ochiq adovatga borishga botina olmaydi. Ular orasidagi ishq bilan bog'liq munozara Farhodning ma'naviy g'alabasi bilan yakunlanadi [Aliyev 1985, 246-247].

Bu yo'nalishdagi dostonlarda Farhodning bosh qahramon qilib olinishi ilk bor ozarbayjonlik shoir Orif Ardabiliyning "Farhodnoma" nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Ushbu doston ikki qismdan iborat bo'lib, har bir qism mustaqil tarzda rivojlanuvchi voqealar tizimiga ega. Birinchi qism "Farhod va Guliston" deb ataladi. Ushbu qismda Nizomiy va Dehlaviyda mavjud bo'lmagan Farhod tarixi tasvirlanadi: Xitoy xoqonining o'g'li Farhod o'z do'sti, rassom Shopurning qo'lida tosh yo'nuvchi ustaning qizi Gulistonning suratini ko'rib qolib, uni izlab Abxaziyaga ketadi, Xitoy taxtini esa uning amakisi egallaydi. Farhod Abxaziyada Gulistonni uchratadi va uni sevib qoladi, lekin Gulistonning otasi o'z qizini faqat toshyo'nar ustaga berishini aytgach, tosh yo'nish hunarini o'rganadi. Bu sohada o'z mahoratini namoyish qilib, Gulistonga uylanadi. To'yga Abxaziya malikasi Mehinbonu va uning jiyani Shirin ham tashrif buyuradilar. Shirinning go'zalligi Eron hukmdori Xusravning qulog'iga yetib boradi va u Shiringa oshiq bo'ladi. Farzand ko'rish arafasida Guliston vafot etadi va Farhod uning qabri ustiga kichik ibodatxona qurdiradi.

Dostonning ikkinchi qismi "Farhod va Shirin" deb ataladi. Voqealar rivoji Nizomiy dostonidan keskin farq qiladi: Shirin Farhodga ko'ngil qo'yadi va Xusravning uning ko'nglini olish bilan bog'liq urinishlari hech qanday natija bermaydi. Farhod Shirin uchun Besutun tog'ida sut arig'ini barpo etadi. Bir vaqtlar Gulistonga oshiq bo'lgan va Farhod tomonidan o'ldirilgan rumlik yigitning onasi Farhodni zaharlaydi va Farhod vafot etadi [Arasli 1969, 22].

Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni 1484-yilda yozib tugallangan bo'lib, 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni o'z ichiga oladi. Dostonning asosiy qismi 12-bobdan boshlanadi. Voqealar Chin xoqonining farzandsizligi va uning iztiroblari tasviri bilan ibtido topadi. Shoirning maqsadi «ishq dardi»ni kuylash ekanligi muqaddimalardayoq ayon bo'lgan edi. Bu ruh, ohang asar voqealari bilan bog'liq o'rinlarda ham ta'kidlanadi.

Nihoyat, uning iltijolari qabul bo'lib, Tangri unga bir o'g'il in'om etadi. Navoiy go'dakning tug'ilishidan tortib ulg'ayishigacha bo'lgan har bir jarayonni alohida tasvirlaydi, hatto go'dakka qo'yilgan ismga ham alohida ma'no yuklaydi. «Farhod» so'zining ma'nosi nurli siymo, baxti o'ziga yo'lboshchi demak. Shoir esa bu nomning arab yozuvidagi harflariga ramziy ma'no berib, ularni firoq, rashk, hajr, oh va dard deb talqin etadi. Bu bilan Navoiy o'z qahramonining hayot yo'li, u chekadigan iztiroblar, uning ilohiy ishq dardiga muhtalo bo'lib tug'ilganiga ishora qiladi:

*Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.*

Farhod bolaligidan favqulodda xislatlari bilan atrofdagilarni hayratga soladi. O'n yasharligida:

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm, –*

darajasiga erishadi. Asarda Farhod ham cheksiz jismoniy qudrat, benazir iste'dod egasi, ham yuksak fazilatlar sohibi sifatida tasvirlanadi.

Farhod yoshi ulg'aygani sari hazin va xastadil bo'lib boradi. Xoqon Farhodning ko'nglini ochish, hazin kayfiyatini ko'tarish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo'nish, Boniydan me'morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o'rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o'rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta'limini olishi kerak edi.

Farhoddagi hazinlikning tarqamaganini ko'rgan xoqon unga taxtni taklif qiladi va shu bilan go'yoki o'g'lining dardiga davo topmoqchi bo'ladi. Aslida, Farhoddagi bu holat zaminiy, dunyoviy bo'lmay, ilohiy ishqning nishonasi edi. Shu o'rinda Navoiy ilohiy ishq dardida yongan inson bilan bunday saodatdan mahrum foniy dunyo kishilari orasidagi farqni ko'rsatib beradi. Farhod otasining taxtni egallash haqidagi taklifini saltanat ishlarini o'rganish, tajriba orttirishga ijozat so'rash bilan ortga suradi. Shuni ham ta'kidlash muhimki, Navoiy mana shu epizodni olib kirib, avvalo, o'z qahramonining dunyo hoy-u havaslaridan oson voz kecha oladigan ma'rifat yo'lidagi inson ekanligini tushuntirmoqchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zi yashayotgan davrda o'z otasi, og'a-inisi bilan toj-taxt, mulk talashayotgan shahzodalarga nasihat qilgandek ham bo'ladi.

Farhod asta-sekin xoqon xazinasidagi behisob boyliklar bilan tanisha boshlaydi. Natijada, yashirin parda ortidagi xonada saqlanayotgan sirli sandiq va undagi tilsimli ko'zguni ko'rib qoladi. Farhod ushbu ko'zguning sehrini ocholmay, Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga o'tlanadi.

Farhodni tarbiyalab voyaga yetkazgan, hunarlar o'rgatgan ustozlari, asosan, dunyo ilmlarini o'rgatgan edilar. Shu bois u qancha ilm-hunar o'rganmasin, qalbida kechayotgan iztiroblarni oxirigacha anglay olmaydi, chunki uning iztiroblari dunyoviy tashvishlardan ancha ustun turardi. Demak, unga pir-rahnamo kerak edi.

Dostonda Farhodning Yunonistonga safari voqealari tasvirida ramziylik yanada kuchayadi. Shoir Yunoniston safari vositasida Farhodning sulukdagi yo'lini, Yunon donishmandlari yasagan, Iskandardan qolgan «hikmat ko'zgusi»ning tilsimini ochishni faqat Suqrot o'rgatishi mumkinligini ishoralar bilan bayon etadi. Suqrot bilan uchrashishga ahd qilib yo'lga chiqqan Farhod dastlab Suhaylo bilan uchrashadi. Suhaylo Suqrot darajasida emas, u ko'zguning sehrini ochishga qurbsiz, lekin Suqrotga yetishish yo'li, dushmanlarini yengish sirlaridan xabardor.

N.Komilovning «Tasavvuf» kitobida yozilishicha, Suhaylo – Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri. U Farhod yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlar – ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog'ini beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U – ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog'ini surganda ajdarhoning o'ti unga kor qilmaydi, ya'ni ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma'nosi bor. Sher – g'azab timsoli, ilohiy ishq yo'lga kirayotgan solikda esa g'azab bo'lmasligi kerak. Temir paykar – ro'yo, yolg'on dunyo ramzi. Solik dunyo mo'jizalariga chalg'imasligi, ularga ko'ngil qo'ymasligi lozim. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat, Suqrot dargohiga kirib boradi [Komilov 2009, 184]

Aslida, Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo'lmay, bosh maqsadni ochib berish yo'lidagi muhim vositadir. N.Komilovning yozishicha, Suqrot piri komil timsoli bo'lib, usiz Farhodning o'z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb ta'riflaydi. U kamolot cho'qqisini egallagan komil inson, o'zi bir joyda o'tirsa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko'zgusi ham uning ko'ngil ko'zgusi oldida xira. U

Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o'z farzandiday e'zozlaydi. Chunki bu yigit siymosida u o'z suluk (yo'l)ining davomini ko'rgan edi [Komilov, 209: 185-186]. U Farhodga shunday deydi:

*Muni bilkim, jahon foniydur asru,
Haqiqat ahli zindoniydur asru.
Agar topsa Sikandar mulki zoting,
Gar o'lsa Nuh umricha hayoting.*

Bu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning muhim g'oyasini bayon etadi. Ya'ni bu dunyo o'tkinchi, foniydir, shu sababli unga ko'ngil bog'lash to'g'ri emas.

*Chu mahbubi haqiqiy uldurur ul,
Aning vasli sori qat' aylamak yo'l...
Bu yo'l ichraki behad dard-u g'amdur,
Uzoq tortar, vale ikki qadamdur
Kim, ul ikki qadamning qat'i ming yil,
Kishi ursa qadam mumkin emas, bil.
Biri o'zluqni qilmoq bo'ldi foniy,
Yana bir dog'i topmoq bo'ldi oni.*

Haqqa yetishish yo'li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o'tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak. Bu ikki qadamning biri o'zlikdan voz kechish, ikkinchisi o'zlikni topish, ya'ni o'zlikdan voz kechmay turib chin ilohiy o'zlikni topish mumkin emas. Inson o'zlikdan qutulmay, Ilohga yetolmas ekan, demak, uni tezlashtiruvchi chora – vosita kerak.

Farhod shu tariqa Suqrot huzuriga borar yo'lda tariqat maqomlarini bosib o'tadi, piri komil suhbatidan bahramand bo'lib, ilohiy ishqning mohiyatini anglay boshlaydi. Chin mamlakatiga qaytib borib, ko'zguda endi nafaqat Shirinni, balki o'zini va o'zi kelgusida boshdan kechirishi kerak bo'lgan voqealarni ko'ra boshlaydi.

Farhodning keyingi faoliyati bevosita Armaniston bilan bog'liq. Ko'zguda Shirinni ko'rgan Farhodning hayoti yana balolarda, sinovlarda o'taveradi. Avval kemanding halokatga uchrashi, uning yolg'iz bir taxta ustida qolib, dengizda oqim bo'ylab suzishi, eronlik savdogarlar tomonidan qutqarilishi, qaroqchilarga qarshi jang, Arman o'lkasiga yetib olishi, suv qaziyotgan odamlarning joniga ora kirishi – tog' kesib, suv chiqarish mashaqqatlari – bularning barchasi ramziy ma'noda majoziy ishq yo'lida chekkan ruhoniy iztiroblar, azob-mashaqqatlardir. Bu voqealarni jonli, rangin bo'yoqlarda tasvirlagan shoir Farhodning dard-u iztiroblari, ishq hasratlarini

kuchli dramatism bilan taqdim etadi. Dostonning hakim Suqrot bilan bog'liq o'rinlarida tasavvufiy mazmun-mohiyatning kuchayib ketganligini ko'rish mumkin edi. Umuman olganda, bu uslub asarning boshidan oxirigacha kuzatiladi. Shu bois asarni zohiriy va botiniy ma'nolarda tushunish, idrok etish mumkin. Zohiriy mazmunning o'ziga asoslanib idrok etilganda ham dostonning ma'rifiy qimmatini yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Farhodning ko'hkanligi Nizomiy dostonida asosan Besutun tog'idan Xusrav askarlariga yo'l ochish orqali ko'rsatilsa, Navoiy dostonida suvdan qiyinalgan xalqqa ariq qazishi voqeasi garchi o'ta mubolag'aviy tarzda berilgan bo'lsa-da, muayyan jihatlari hayotiy asosga ega. Navoiy yashagan davrda Hirotning o'zida ham suv tanqisligi muammosi mavjud edi. «Vaqfiya» asaridagi ariqlar, hovuzlar qazilganligi haqidagi ma'lumotlar bunga misol. Farhoddek shahzodaning xalqqa bergan ko'magini badiiy tasvirlagan shoirning ijtimoiy (shahzodalarga pand ma'nosida) maqsadlari bor edi. Xos va avom kitobxonga birdek qiziq bo'lgan bu doston dan har xil darajadagi kitobxon o'z imkoniyat va iqtidori darajasida ta'sirlanishi mumkin. Asarning yana bir nomi – «Mehnatnoma»ni ko'pchilik Farhodning Arman yurtidagi mehnati bilan bog'lab tushuntirishga intiladi. Bu bir qarashda to'g'ridek. Biroq Navoiyning o'zi doston boshida «Mehnatnoma»ni qo'llaganida Farhod boshidan kechirgan qiyinchiliklar va mashaqqatlarni nazarda tutgan edi.

Dostonni o'qitishda miniatyuralardan foydalanish

"Farhod va Shirin" dostonini o'qitishda miniatyuralardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Talabalar dostonni o'qib bo'lganlaridan so'ng amaliy va seminar mashg'ulotlarda ularga dostonga ishlangan bir necha miniatyuralar taqdim qilinib, ularni izohlash so'raladi. Ma'lumki, Musulmon Sharqi miniatyurasida badiiy asar g'oyasini umumlashtirish asosida, ramziylik vositasida ifodalashga asosiy e'tibor qaratilgan [Erkinov 2018, 231]. "Miniatyuradagi dabdabali ranglar bezagi, chiziqlar va figuralar uyg'unligi ostida bizning zamondoshimiz tushunishi hamma vaqt ham mumkin bo'lmagan ma'nolar yashiringan" [Shukurov 1991, 91]. Shu ma'noda miniatyura zamonaviy kitobxonga asar matnini tushunishni osonlashtirish bilan birga, uning badiiy va estetik tafakkurini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Farhod va Shirin dostoniga ishlangan «Zoli makkora Farhodga Shirinning o'limi haqida xabar bermoqda» miniatyurasini olaylik. Ushbu miniatyura "Xamsa"ning 1485-yilda Hirotda

ko'chirilgan nusxasiga kiritilgan. Miniatyura yuqorisida quyidagi ikki bayt berilgan:

*G'araz gar jon edi, olding ano hoy,
O'luk tandin ne istarsen yano hoy.
Ko'ngul qonin ichardin to'yg'il emdi,
Meni o'z mehnatimg'a qo'yg'il emdi* [Navoiy 2006, 285].

Talabalarga mazkur miniatyura taqdim etilar ekan, dastavval undagi baytlarni o'qish so'raladi. So'ngra ushbu baytlarning kimning tilidan va nima munosabat aytilganini aniqlash talab qilinadi.

Keyingi bosqichda endi talabalar bevosita miniatyurani "o'qishni" boshlaydilar: Agar e'tibor qaratilsa, miniatyurada Farhod va unga Shirinning o'limi haqidagi yolg'on xabarni yetkazayotgan Zoli makkora – Yosuman kampir tabiat, ya'ni tog'u toshlar fonida tasvirlangan. Tasvirda quyidagi obrazlarning mavjudligini ko'rish mumkin: Farhod, bir nechta tesha va bolg'a, zoli makkora, kiyik, tog' echkisi, shayx, sher, bargsiz daraxtlar [Erkinov 2018, 242].

Tasvirning qisqacha mazmunini quyidagicha: Farhod – Haqqa yetishishni maqsad qilgan soliki majzub timsoli. U foniy dunyoda vaslga erishishi uchun o'z nafi ammorasini yengmog'i kerak. Bu yo'lda vosita tariqat bosqichlari bo'lib, u oxir-oqibatda komil solikning vujud va ruh olamini bir butunlikka olib keladi. Nafsi ammora (Yosuman) ilohiy ruh mazharining (Shirinning) so'nganligidan xabar bermoqda. A.Erkinovning fikricha, "...solik ko'nglida uyg'ongan ushbu shubhani vujud tomonidan bo'layotgan ziddiyat, tajovuz deb qabul qilish kerak. Shu sababli tasvirda komil solikning tuyg'ulari timsoli alohida-alohida o'rinda berilgan. Farhod tasviri: Farhodning egnidagi ko'k rang kiyim komil inson timsoli bo'lib, jigar rang riyozat bosqichini o'taganlikni bildiradi, dastor – mutafakkir (tafakkurli shaxs), qizil qalpoq – bahri rahmat (inson tafakkurining ezgulik manbai ekanligi). Uning ko'zi kichikligi esa, dunyoga boqmaslik bo'lib, qo'lining ochiqligi bu dunyo moli – moddiyatga beparvoligiga ishoradir. Belidagi kamar o'z maqsadiga yetishish yo'lida sobitligi va himmati balandligini anglatadi [Erkinov, 2018: 242]. Farhodning orqa tomonida tasvirlangan yovvoyi hayvonlar – sher, tog' echkisi, ayiq solikning tabiatidagi g'azab, boylik bilan bog'liq tuyg'ularning mahv etilganligiga ishora bo'lib, Farhod ularni yengib o'tgan, shu sababli ular Farhoddan uzoqroqda, tepa fonda tasvirlangan. Eng yuqorida tasvirlangan shayx – Suqrot timsoli esa Farhodning tasavvufdagi piri bo'lib, uning makoni tog'lar orasidadir. "Shayx qancha ulug' bo'lsa, u makon tutgan tog' ham shuncha baland va mahobatli, unga yetishish azobi ham og'ir. Tog' — piring ulug'vorligi timsoli, boz ustiga,

qimmatbaho ma'danlar ham tog' bag'rida, ya'nikim pir — ma'rifat, bilim koni" [Komilov 209, 186]. Minitayurada tasvirlangan suv – zohiran Farhodning tog' qazib, suv chiqarishi, ramziy ma'noda esa oshiqning ishq yo'lida chekkan ruhiy iztiroblari, hijron azoblaridir.

Shu o'rinda ushbu timsollarning ramziy ma'nolari aks etgan quyidagi jadvalga murojaat qilish mumkin:

| Obraz va timsollar nomi | Ular anglatgan ma'no |
|--------------------------------|--|
| Farhod | Haqqa yetishishni maqsad qilgan solik |
| Shirin | Mazhar, ya'ni Haq jamolini o'zida zohir qilgan timsol |
| Yosuman | Nafsi ammora |
| Shayx (Suqrot) | Haqqa yetish va ko'ngil sirlarini yechish yo'lini ko'rsatgan piri murshid, komil inson timsoli |
| Sher | G'azab |
| Ohu | Poklanish |
| Suv | Oshiqning ishq yo'lida chekkan ruhiy iztiroblari, hijron azoblari |
| Ko'k rang | Solikning komil inson darajasiga yetganiga ishora |
| Jigarrang | Riyozat bosqichini o'taganlik |
| Dastor | Mutafakkir (tafakkurli shaxs) |
| Qizil qalpoq | Bahri rahmat (inson tafakkurining ezgulik manbai ekanligi) |
| Kamar | Maqsadiga yetishish yo'lida sobitlik va himmat |

Ko'rinadiki, miniatyura Navoiy ifodalamoqchi bo'lgan g'oyani kitobxonga yanada kengroq va chuqurroq yetkazishga xizmat qilyapti.

Xulosa

Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini kun bayti, konseptual jadvallar va chizmalar hamda miniatyuralar asosida o'rganish doston asosidagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil etish, mumtoz asarlarni o'qitishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa "Xamsa" takibidagi boshqa dostonlarni ham xamsanavislarning dostonlari bilan qiyoslash, ulardagi bosh qahramonlar xarakteridagi farqli va mushtarak jihatlarni o'rganish buyuk mutafakkir ijodining bosh

mohiyatini anglashga, dostondagi muallif g'oyaviy niyatini teran tushunishda yordam beradi, zero, qiyoslash orqali o'quvchi yoki kitobxonning ilmiy-nazariy tafakkuri rivojlanadi.

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy. 2006. *Farhod va Shirin*. Nasriy bayoni bilan. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Алишер Навоий. 1991. *Фарҳод ва Ширин*. МАТ. 20 жилдлик. Т.8. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий: қомусий луғат*. 2016. 1-2-жилдлар. Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. Тошкент: Sharq.
- Алиев, Г.Ю. 1985. *Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока*. Москва: Наука.
- Араслы, Н.Г. 1969. *Ариф Ардебилли и его поэма «Фархаднаме»*: Афтореф. дис... канд. филол. наук. Баку.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Мовароуннахр-О'zbekiston.
- Шукуров, Ш. 1991. *«Охота за смыслом» в искусстве Ирана*. Сад одного цветка: статьи и эссе. Москва.
- Эркинов, С. 2018. *Алишер Навоий «Хамса»си талқини манбалари (XV – XX аср боши)*. Тошкент.
- Эркинов, С. 1971. *Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили*. Тошкент.
- Эркинов, С. 1985. *Шарқ адабиётида Фарҳод қиссаси*. Тошкент: Фан.

Modern technologies and use of methods

(in the example of "Farhod and Shirin")

Dilnavoz Yusupova¹

Abstract

The article covers the issue of teaching Alisher Navoi's epic "Farhad and Shirin" in higher educational institutions based on modern technologies. New effective methods for teaching Navoi's works have been developed. In particular, the "kun bayti" technology aimed at attracting the student's attention, conceptual tables based on comparison, drawings bring the student closer to Navoi's work to a certain extent during the course of the lesson. Describing the heroes of the work based on miniatures leads to thinking. On the basis of these methods and technologies, the skill of artistic analysis is formed, and they get acquainted with the creative world of Alisher Navoi.

Key words: *epic, tradition, conceptual table, drawing, miniature.*

References

- Alisher Navoiy. 2006. *Farhod va Shirin*. Nasriy bayoni bilan. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. 1991. *Farhod va Shirin*. MAT. 20 jildlik. T.8. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy: *qomusiy lug'at*. 2016. 1-2-jildlar. Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Aliev, G.Yu. 1985. *Темы и сюжеты Низами в литературax narodov Vostoka*. Moskva: Nauka.
- Араслы, N.G. 1969. *Arif Ardebili i yego poema «Farxadname»*: Aftoref. dis... kand. filol. nauk. Baku.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston.
- Shukurov, Sh. 1991. *«Oxota za smisлом» v iskusstve Irana*. Sad odnogo svetka: stati i esse. Moskva.
- Erkinov, S. 2018. *Alisher Navoiy «Xamsa»si talqini manbalari (XV – XX asr boshi)*. Toshkent.
- Erkinov, S. 1971. *Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili*. Toshkent.
- Erkinov, S. 1985. *Sharq adabiyotida Farhod qissasi*. Toshkent: Fan.

¹Dilnavoz R. Yusupova – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: dilnavoz@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

For citation: Yusupova, D. R. 2022. "Modern technologies and use of methods (in the example of "Farhod and Shirin"). *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 89-102.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 31.03.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.